

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM BAZIRLIGI**

**ZAXRIDDIN MUXAMMAD BOBUR
NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
TASVIRIY SAN'AT MUXANDISLIK GRAFIKASI YO'NALISHI
3 - BOSQICH "A" GURUH TALABASI**

Xoshimova Sevaraning.

**“Kasb-hunar kollejlarida chizmachilik darslarida birikmalar mavzusi orqali
o'quvchilarni fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish.”
mavzusidagi**

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

M. Zokirova

Andijon - 2013

REJA

I. Kirish.

II. Asosiy qism.

1. Kasb-hunar kollejlarda chizmachilik o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari.
2. Talabalarining grafik savodxonligini oshirish omillari.
3. Birikmalar mavzusi orqali o`quvchilarni fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Chizmachilikning uslubiy tuzilishi o'quv materiallarini o'zlashtirishga, idrok qilish faolligini oshirishga, mustaqil bilim olishga, xotirani oshirishga, qiziquvchanlikni tarbiyalashga qaratiladi.

Chizma chizish murakkab jarayon hisoblanadi, chizuvchidan sabr toqat va qunt bilan ishlashni talab qiladi. Chizmaning sifati chizuvchining qo'l sezgisiga bog'liq bo'ladi. Chizmalarni toza va chiroyli qilib chizishda, asosan, qo'l sezgisi katta ahamiyatga ega. Chiziladigan bir hil turdagi chiziqlar bir hil yo'g'onlikda, bir tekis qilib chizilishi lozim. Insonda qo'l sezgisi yaxshi rivojlangan bo'lsa, qo'lga olgan qalamni qog'os ustida mahorat bilan yurgiza oladi. Insonning qo'l sezgisini tekshirish uchun qalam uchi ingichka qilib chiqariladi (uchlanadi) va chizg'ich yordamida bir nechta chiziq chizish mashq qilinadi. Shunda chizilgan chiziqlarning ko'pchiligi bir xil chiqsa, uning qo'l sezgisi yaxshi rivojlangan hisoblanadi.

Ba'zi odamlarning qo'l sezgisi nisbatan rivojlanmagan bo'ladi. Ular qalamning uchi ingichka yoki yo'g'onroq uchlangandan qat'iy nazar, qalamni bir xilda bosib chizishadi. Shunda ingichka uchli qalam uchi sinib ketadi, bu yerda, ingichka uchli qalamni ohistalik bilan bosib chizish lozimligiga ahamiyat berilmaydi. Muntazam ravishda ingichka uchli qalam bilan chizishni mashq qilib turish orqali qo'l harakati sezgisini me'yorlash mumkin.

Turli jismoniy mehnat jarayonidan keyin qo'l sezgisi pasayib ketadi. Bunda chizmalarni chizish bir muncha qiyinlashishini ham hisobga olish tavsiya etiladi.

Hayotimizda chizmaning o'rni juda kattadir. Hozirgi ishlab chiqarishni chizmalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Narsalarni texnikada qabul qilingan tasvirlash usullari ko'p asrlar davomida yaratilgan.

Ishlab chiqarishda biror buyumni, masalan, mashina va mexanizmlarning detallarini yasash hamda ularni yig'ish, shuningdek, bino hamda inshootlar nqurish uchun ularning chizmalari bo'lishi zarur. Chunki chizmalarsiz buyumlarni yasab bo'lmaydi.

Buyumning shaklini va o'lchamlarini tekislikda aniq ko'rsatadigan tasvir ko'mpleks chizma yoki, qisqacha qilib, chizma dey

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA CHIZMACHILIK O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Respublikamizdagi kasb-hunar kollejlarida 300 ga yaqin kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlanmoqda. Chizmachilik kursining boshqa fanlar bilan aloqalari, kasb-hunar kollejlari talabalarini politexnik tarbiyalashda va ularning kasbiy faoliyatida katta o'rin egallaydi. Shuning uchun ham kasb-hunar kollejlarining ko'pchilik mutaxassisliklarida chizmachilik fani alohida fan sifatida o'quv jarayoniga kiritilgan. Kasb-hunar kollejlarida tayyor-lanadigan mutaxassisning malakaviy tavsifnomasiga asosan chizma-chilik kursi quyidagi talablarga javob berishi zarur bo'ladi:

1) kasb-hunar kollejlarida o'rganiladigan chizmachilik kursidagi materiallar umumta'lim maktablaridagi chizmachilik kursi materiallarini takrorlamasligi zarur;

2) kurs oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan "muhandislik grafikasi" yoki oliy o'quv yurtlaridagi chizmachilik kursining "qisqartirilgan varianti" shakliga kelib qolmasligi kerak;

3) kasb-hunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislik malakaviy tavsifnomasiga asosan kursda o'rganiladigan materiallar mazmuni bevosita kasbiy faoliyatga taalluqli bo'lishi zarur;

4) kurs ilg'or metodika, yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda talabalar va o'qituvchi foydalanishi uchun qulay, ravon tilda yozilgan bo'lishi kerak;

5) talabalarga o'rgatiladigan bilimlar hajmini belgilashda ularning grafik savodxonligini talab darajasiga chiqarishda asosiy e'tiborni individual grafik topshiriqlar soni va variantlarning yetarli bo'lishini ta'minlashga qaratish kerak;

6) chizmachilik kursining mazmuni va nomlanishi mutaxassislik yo'nalishi va malakaviy tavsifnoma talablariga mos bo'lishi kerak.

Kasb-hunar kollejlari mutaxassislik yo'nalishiga u yerda o'rganiladigan grafika (chizmachilik) kursining mazmuni va nomlanishi ham mos bo'lishi kerak. Hozirgi kunda kollejlardagi ko'pchilik mutaxassislik yo'nalishlari uchun darsliklar va topshiriqlar to'plamlari nashr qilinib ulgirilmaganligi sababli bu ishlarni fan o'qituvchisi mutaxassislik kasbiy faoliyati xususiyatini hisobga olgan holda mustaqil ravishda bajarishiga to'g'ri kelmoqda. Kollejlardagi chizmachilik kursi o'qituvchisi oldida bitiruvchilarini qurilish, mashinasozlik, og'ir va yengil sanoat tarmoqlari, servis va xizmat ko'rsatish sohalari kabi yo'nalishlardagi ishlab chiqarish chizmalari bilan tanishtirish, ularni o'qish va bajarishga o'rgatish vazifasi turadi. Ushbu sohalarning hammasida texnik va ishlab chiqarish hujjatlari sifatida chizmalar muhim o'rin egallaydi. Kasb-hunar kollejlari chizmachilik o'qituvchilari kursni zamonaviy talablar darajasida tashkil qilishlari, talabalarni kasbiy faoliyatga to'g'ri tayyorlashlari uchun ulardan ta'lim metodikasini egallash bilan birgalikda politexnik bilimlarni ham yetarlicha chuqur bilishlik talab qilinadi.

Chizmachilik kursidagi nazariy ma'lumotlarning ahamiyatini to'g'ri baholamasdan o'qitish metodlaridagi bir xillik ayniqsa o'quvchi va talabalarning fanni o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'qituvchilar chizmachilik kursi asosan amaliy mashg'ulotlardan iborat deb hisoblab, kurs materiallarini tizimli ravishda bayon qilib bormaydilar, o'quvchilarning shu bo'limdagi har xil topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo'lgan materiallarni bayon qilmaydilar, u yoki bu mashina detallarini tasvirlashda qo'llash uchun qabul qilingan shartliliklarning ma'nolarini asoslab bermaydilar va h. Odatda bunday o'qituvchilar doskada biror chizmani bajarishda uni qisqacha sharhlab boradilar. Talabalar shu chizmani ish daftarlariga ko'chirib oladilar va keyinchalik individual topshiriqlarni bajarishda undan foydalanadilar. Bunday bir xil uslubning uzoq qo'llanilishi talabalarda faqat chizma bajarish texnikasining takomillashishiga olib keladi, ularning fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlari rivojlanmaydi.

Kasb-hunar kollejlari chizmachilikdan topshiriqlar tuzish va tanlashda topshiriqni bajarishdan maqsad ko'rsatilishi, individual topshiriq mazmuni aniq belgilanishi, topshiriqni bajarish muddati (katta hajmli topshiriqlar uchun oraliq muddatlar ham) ko'rsatilishi, grafik ishlarga sarflanadigan vaqt o'quvchilarning vaqt budjetiga mos kelishi, individual topshiriqlar variantlari taxminan bir xil murakkablikda bo'lishi; o'quvchilarning topshiriqni bajarishga tayyorgarlik darajalari e'tiborga olinishi; topshiriqlar tayyorlanadigan mutaxassislik yo'nalishi-ga va texnikaning zamonaviy darajasiga mos kelishi kerak. Shu ko'ri-nishda tuzilgan va bajarish jarayoni tashkil qilingan topshiriqlar talabalarni ob'ekt to'g'risidagi ma'lumotlarni grafik axborot kompleksi ko'rinishida va aksincha ifodalashni o'rgatadi.

Kollejlarda talabalar individual topshiriqlarni chizmachilik kursi ta'limining hamma bosqichlarida bajaradilar. Ularni tanlashda oddiydan murakkabga o'tish tamoyiliga amal qilinadi; har bir grafik topshiriq talabalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olib, imkoni bo'richa uni qiziqib bajarishlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Kasb-hunar kollejlari uchun chizmachilik kursidan topshiriqlarni tanlashda quyidagi shartlarni bajarilishiga e'tibor qilish kerak:

- 1) talabalarning kasbiy faoliyatida zaruriyati;
- 2) ularning fazoviy tasavvurlari va mantiqiy fikrlashlarining rivojlanishiga xizmat qilishi;
- 3) mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha grafik tasvirlarni savodli bajarishga tayyorlashi.

V

DAVLAT STANDARTI ASOSIDA GRAFIK ISHLARNI BAJARISHI.

Kasb-hunar kollejaridalarida chizmachilik ta'limi rivojlanib borayotgan mustakil davlatimiz valk xujaligining barcha tarmoklarida yangi texnologiyaning yaratilishi va joriy kilinishida zamonaviy ishlab chikarish, fantexnika tarakkiyotining jadallashtirishida xamda insin amaliy faoliyatida tutgan urni bilan belgilanadi.

Kasb-hunar kollejaridalarida chizmachilik kursi ta'limning umumiy maksadlarini amalgam oshirishga xizmat kilib, o'quvchilarning tabiat va texnikani kurgazmali idrok etishiga predmetlarning to'zilishini va fazoviy munosabatlarini chukarrok bilishiga, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlar va xodisalar sinchiklab o'rganishga yordam beradi.

Shuningdek chizmalarni o'qish va bajarish orqali bolalarning fazoviy tasavvuri va mantiqiy tafakkurini texnikaviy ijod bunyodkorlik loyixalash kabi sifatlarini rivojlantiradi.

Kasb-hunar kollejaridalarida chizmachilik ta'limining maqsadi o'quvchilarni murakkab bo'lmagan texni chizmalarni bajarishga, o'qishga va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga urganishdan iborat.

Talabalarlarda chizmalarni taxt qilish qoidalarini va chizma asboblaridan o'z o'rnida foydalanish malaka va ko'nikmasini xosil qilish.

Bolalar ish urnini to'g'ri tashkil etish intizom va ijtimoiy mulkni asrab avaylash abi vaziyatlarni tarbiyalash.

Geometrik yasashlar sirkul va lekalo yordamida bajariladigan egri chiziqlar bo'yicha xosil qilish.

Chizmalar tarkibini taxlil qilish va o'qish malakalarini xosil qilish.

Bolalarning fazoviy tasavvuri xamda grafik tafakkurini rivojlantirish.

Chizmalarda kesish qirqim shartliklar va soddalashtirishlardan foydalana olishga ugatish.

Grafik redaktor yordamida oddiy chizmalar yasash ko'nikmalarni shakllantirish.

Ajraladilgan va ajralmaydigan birikmalar yig'ish chizmalari bo'yicha umumiy tushuncha berish.

Qurilish va sxema chizmalarining asoslari bilan tanishtirish Ma'lumotnoma adabiyotlardan foydalana bilishga urgatish.

Mazkur standart o'quvchilarga beriladigan bilim kunikma va makalarning meyorini beigilaydi. Mazkur ta'lim standarti chizmazhilik oldiga qo'yilgan vazifakarni bajarishni ta'minlash va nazorat qilishni amalgam oshiradi. O'quvchilarning grafik tayyorgarlik darajasiga kuyilgan talablar majmuasini belgilab beradi.

Chizmachilik qursining mazmuni ilmiy fanlar " Chizma geometriya " va "Muxandislik grafikasi " bilan aniqlanadi.

Kasb-hunar kollejaridalarida chizmachilik kursining mazmuni didaktika prinsiplaridan kelib chikib, chizmalarni o'qish va bajarish bo'yicha standartlashtirilgan.

Grafik va amaliy ishlar mazmunini chizmalarni o'qishga xamda ta'lim jarayonida loyixalash masalalaridan foydalanilgan xolda xalkaro standartlarda qabul kilingan shartlilik va simvolik belgilab muvofiklashtirishga yunaltirish.

Maktab chizmachilik ta'limi mazmuniga ajratilgan tasvirlash metodiga tegishli chizmalarni tanlashda materiallarni texnik va amaliy moxiyati, xayotda qo'llanish ko'lamini kengligi xal qiluvchi ro'l o'ynashini e'tiborga olish.

Bunday tasvirlash metodi chizmachilikda asosiy xisoblangan to'g'ri burchakli proeksiyalash va aksonometrik proeksiyalar metodidir. Bulardan tashqari, bolalartasvirlarni almashtirish texnologik, arxitektura qurilish va sxema chizmalarning asoslari bilan tasvirlashadi.

Chizmachilik ta'limi mazmunini to'zishda politexnik ta'lim vazifalari, durdash predmetlari va mexnat tayyorgarligi talablarini xisobga olish.

“Politexnik ta'lim” tushunchasini kuyidagicha izoxlash mumkun.

O'quvchilarga faqat politexnik bilim va makalar beradigan aloxida o'quv predmeti yo'q. Talaba kasb-hunar kollejaridalaridagi barcha ta'lim-tarbiya vositalari, ayniqsa grafik ta'lim orqali politexnik ma'lumotga ega bo'ladi. Ta'limdagi politexnik prinsip o'quvchilarni o'quv va mexnat faoliyati ob'ektlarning politexnik mazmuni xamda uning o'qituvchi tomonidan ochib berilishi va o'quvchilarning qabul qilish tizimlarini ifodalaydi.

Grafik ta'lim mazminida bolalarni xar tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash uchun.

O'zbekistonning mustaqillik davri prinsiplaridan biri bo'lgan ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-nazariy meroslardan faxrlanish tuyg'ularini tarkib toptirishdan iborat.

Binobarin, fan va madaniyatning mumtoz namoyondalari koldirgan ilmiy-nazariy meros bugungi va kelgusi avlod tafakkur doirasini kengaytirish bevosita yordam beradi. Yuqorida kujo'rsatib o'tilgan asosiy prinsiplardan tashqari quyidagi shart-sharoitlarga:

- xozirgi zamon fan texnikasi, ishlab chiqarish taraqqiyoti vazifalari bilan o'zviy bog'langan asosiy o'ynalishlarni o'zida aks ettira oladigan bilimlar kunikmalar va malakalar tizimi:

- o'quv materiyalari rivojlangan xorijiy mamlakatlar grafik ta'lim mazmuni tajribalariga munosibliqi:

- o'quv predmetini anglash uchun tanlangan mazmuni belgilangan vakt doirasiga sig'ishi:

Grafik ta'lim mazmuning xozirgi va istikboldagi maktablar moddiy-texnika xamda didaktik vosita imkoniyatlariga mos kelishiga amal kilinishi lozim.

Grafik ta'lim xajmining majburiy minimal urta ta'lim maktablarida o'quvchilarga berilishi zarur bulgan ta'lim mazmuni mininumini ifodalaydi.

Kasb-hunar kollejlariidalarida grafik ta'limini belgilashda bitiruvchilar texnikaviy grafikning asoslaridan standart doirasida amaliy va nazariy ko'nikmalarga ega bo'lishlari nazarda tutiladi:

- chizmalarni taxt qilish koidalari:
- chizmalik shriftlari:
- geometrik yasashlar:
- proyeksiyalash usullari:
- kesim va qirqimlar chizmalarda shartlilik, soddalashtirishlar:
- texnik rasmlar va eskizlar:
- loyixalash elementlari bo'lgan ijodiy grafik masalalar:
- grafik redaktor yordamida oddiy chizmalar yasash:
- mashinasozlik chizmalarsxrmalar:
- qurilish chizmalari:

Chizma buyumlar, asboblari va o'quv qurollari.

Ish o'rnini tashkil etish. Chizmalarni taxt qilishga qo'yilgan talablar. Chizma kog'ozlarning o'lchamlari, bichinlari uning xoshiyasi va asosiy yozuvi. Mashtablar. Chiziq turlari. O'lcham qo'yish qoidalari.

Buyum turlari.

Konstruktorlik xujjatlarning turlari, yig'sh chizmalari, ajraladigan va ajralmaydigan birikmalar, rezbalari va ularning turlari, chizmalarda rezbalarni tasvirlash, rezbali birikmalarni chizish.

Oddiy yig'ish chizmalarini o'qish. Oddiy elektr va radio sxemalar. Chizmalikda o'quvchilardan ma'lum oralikdagi bilim va kunikmalarning nazorati fan o'quvchisi, maktab rahbarlari tuman xalq ta'limini bo'limining darslari va xalq ta'limining Davlat standartlari va monitoring bo'limlari mutaxassislar tomonidan utkazish mumkin.

Standartga ilova qilingan o'quvchilarning choraklar bo'yicha uddalay olishlari lozim, bo'lgan o'quv topshiriqlarning taxmini mazmunini mavzular sifatida berilgan bo'lib, ular standart nazarida tutgan minimal talablar ifodalaydi.

O'quvchilarning bilim malakalarini aniqlashda topshiriqlar mazmunini jadal tegishli . Choraklarda ko'rsatilgan mavzular asos qilib olinadi.

Topshiriqlarning aniq maqsadi yangi darslik, dars ishlanma va grafik topshiriqlar tanlanadi.

Choraklar bo'yicha nazoratlar test o'tkazishdan usullaridan foydalanish mumkin. Savollar mazmunini darslikning tegishli mazmuni oxiridagi savollar va topshiriqlar mazmunini asosni to'zish mumkin.

CHizmachilik kursining boshqa fanlar bilan aloqalari, kasb-hunar kolejlari talabalarini politexnik tarbiyalashda va ularning kasbiy faoliyatida katta urin egallaydi.

SHuning uchun xam kasb- xunar kollejlarning ko'pchilik mutaxassisliklarida chizmachilik fani alohida fan sifatida ukuv jarayoniga kiritilgan.

Kasb – xunar kollejlardagi mutaxassislik yo'nalishiga bu yerda o'rganiladigan grafika (chizmachilik) kursining mazmuni va nomlanishi ham mos bo'lishi kerak. Hozirgi kunda kollejlardagi ko'pchilik mutaxassislik yo'nalishlari uchun darsliklar va toshiriqlar tuplamlari nashr qilinib ulgurmaganligi sababli bu ishlarni fan o'qituvchisi mutaxassislik kasbiy faoliyati xususiyatini hisobga olgan xolda mustakil ravishda bajarishga tug'ri kelmokda. Ko'llejlardagi chizmachilik qursi o'qituvchisi oldida bituruvchilarini kurilish, mashinasozlik, og'ir va engio sanoat tarmoqlari, sevis va xizmat kursatish soxalari kabi yo'nalishlaridagi ishlab chikarish chizmalari bilan tanishtirish, ularni o'qish va bajarish urgatish vazifasi turadi.

Kasb –xunar kollejlarda chizmachilikdan topshiriqlar tuzish va tinlashda topshiriqni bajarishdan maqsad ko'rsatilishi, induvudal topshiriq mazmuni aniq belgilanishi, topshiriqni bajarish muddati (katta xajmli topshiriqlar uchun ortiq muddatlar ham) ko'rsatilishi, grafik ishlariga sarflanadigan vaqt o'quvchilarning vaqt budjetiga mos kelishi induvudal topshiriqlar variantlar taxminan bir xil murakkablikda bo'lishi: o'quvchilarning topshirikni bajarishga tayyorgarlik darajalari e'tiborga olinishi: topshiriqlar tayyorlanadigan mutaxassislik yo'nalishiga va texnikaning zamonaviy darajasiga mos kelishi kerak.


Kasb – xunar kolejlari uchun chizmachilik kursida topshiriqni tanlashda quyidagi shartlarni bajarishga etibor qilish kerak ;

- 1) talabalarning kasbiy faoliyatida zaruriyati ;
- 2) Ularning fazoviy tasavvurlari va mantiqiy fikirlashoaring rivojlanishiga xizmat qilishi;
- 3) Mutaxassislik yunalishi bo'yicha grafik tasvirlarni savodli bajarishga tayyorlashi.

Birikmalar mavzusi orqali o'quvchilarni fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish.


Har qanday texnik yo`nalishdagi soha mutaxassisidan detal chizmalari, ularning birikmalari va yig`ish chizmalarini o`qish hamda bajarishni yaxshi bilish talab qilinadi. Lekin, ushbu yo`nalishdagi bilimlarni qanday hajmda va batafsil tushuntirish, o`rgatish zarurligini o`qituvchi o`quvchilarning keyingi hayotdagi, turmush va ish faoliyatidagi shu bilimlarga bo`ladigan zaruriyati hamda qiziqishlarini hisobga olib mustaqil belgilashi mumkin. Bunda o`quv dasturida yig`ish chizmalarini o`rganishga qisqa vaqt ajratilgani ham o`z ta'sirini o`tkazadi.

Yuqorida aytilgan ta'sirlarga qaramasdan bu mavzularni o`rganish va o`zlashtirish sifatiga dastlabki tanishtirish – tahlil darslarining ahamiyati ko`p bog`liq. Mazmun nuqtai nazaridan bu darslarda o`quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish va sanoatda keng tarqalgan detallar, ularning turlari va nomlanishi, shuningdek, ajraladigan va ajralmaydigan birikmalari bilan tanishtirish kerak (112-shakl).



112-shakl. Mashina detallari birikmalarining turlari

Avval o`quvchilarga mashinasozlikda keng tarqalgan tipaviy detallar va uzatmalar haqida umumiy ma'lumotlarni aytib o'tish o`quvchilarni mashinasozlik chizmachiligi atamalaridan ongli ravishda foydalanishlariga olib keladi. Bunda 113-shakldagi kabi plakatni o`quvchilar bilan birgalikda o`rganib chiqib, keyinchalik uni shu bo`limni o`rganish mobaynida sinfdagi ko`rinarli joyga ilib qo`yish ham foydali bo`ladi.



113-
shakl.

Tipaviy detallar va uzatmalariga misollar plakati

Bunda oldin 112-shakldagiga o'xshash plakat yordamida birik-malarning mashinasozlikdagi ahamiyati va qo'llanilishi tushuntirilib, keyin o'quvchilarda shu birikmalar turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash kerak bo'ladi.


Ularga rezkali, shponkali, payvand, parchin, shuningdek tikish, yelimlash va deformatsiyalash usullari bilan hosil qilinadigan birikmalar kiradi. Lekin bu bosqichda keltiriladigan misollar «pedagogik – reklama» xarakterida bo'ladigandek, har bir birikmalarning

mazmunini chuqur tushuntirish shart emas. Illyustrativ materiallar sifatida mashinasozlik va turmushda qo'llaniladigan turli xil birikmalar namunalari va 114-shakldagi plakatlariga o'xshash ko'rgazmalardan foydalanish tavsiya qilinadi. Dastlabki darsda asosiy vazifa ko'rsatiladigan illyustrativ materiallar, keltiriladigan misollar o'quvchilarni qiziqtirishi, ijodkorlik faoliyatiga undashi va estetik tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

114-shakl. Ajraladigan birikmalarning yaqqol tasviri va chizmada tasvirlanishini tushintirishga oid plakat namunasi

Birinchi darsning oxirida qisqa suhbat o'tkazib o'quvchilarning qiziqish doiralarini, shu sohadagi tajribalarini bilib olish mumkin. Shundan keyin o'quvchilarga «Detallar birikmalari bilan uchrashuvlar» mavzusida uyga vazifa berish mumkin. Vazifa prospektlar, gazeta va jurnallardan qirqib olingan tasvirlarni A3 formatli qog'ozga yelimplab yopishtirib bajariladi.

Ajraluvchi va ajralmas birikmalar chizmala-rini o'qish va bajarishga o'rgatish. Keyingi darslarda o'quvchilar bilan birgalikda bitta detal (masalan, bolt)ning eskizini bajarish maqsadga muvofiq. Undan keyin ikkinchisini (shpilka va hokazo) o'quvchilarga mustaqil ishlari uchun topshirish mumkin. Bulardan keyin ikkita, detalni bolt bilan birgalikda bajarish tavsiya qilinadi.



Bu mashg'ulotda oldin o'quvchi boltli birikma maketini namoyish qilishi kerak (115-shakl).

Agar maket yetarlicha katta o'lchamdagi shaffof material (organik shisha)dan tayyorlangan bo'lsa yana yaxshi (bolt – aluminiy yoki po'latdan). O'quvchilar diq-qatini biriktiriluvchi detallar-


115-shakl. Boltli birikma maketi dagi silindrik teshiklardagi xoli qimslariga qaratish va shu yerda «biriktiruvchi» juftlik (masalan, bolt–gayka) tahliliga to'xtalinadi.

Nisbatan yupqa bo'lgan ikkita detalni tez yig'ish yoki qismlarga ajratishda boltli birikmalarning afzalliklarini o'qituvchi ko'rgazmali vositalar yordamida o'quvchilarga tushintirgandan keyin, shu birikmalarni chizmada tasvirlanishini o'quvchilar bilan birgalikda ko'rib chiqadi. O'qituvchi bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarda rezbalarni chizmada to'g'ri tasvirlash malakalarini shakllantirishga qaratishi kerak. Ko'pchilik hollarda o'quvchilar sterjen va teshiklarda, ichki diametrda rezba tasvirlashda chiziq turlaridan noto'g'ri foydalanadilar. Shuning


uchun o'qituvchi 116- va 117-shakllardagi chizmalarni doskada chizib, chizmada rezbalarni tasvirlash qoidalarini o'quvchilarga batafsil tushintirishi o'quvchilarda bu malakalarni to'g'ri shakllanishiga ko'maklashadi. Ushbu chizmalarni o'quvchilarning ish daftarlariga bajarishlarini tavsiya qilish ham mumkin.

Shundan keyin o'qituvchi 118-shakldagiga o'xshash misollar bilan chizmada rezbalarning tasvirlanishi, rezba o'lchamlarini ko'rsatish usullari bilan o'quvchilarni tanishtiradi.


Rezba birikmalarining tasvirlanishi (119-shakl) ko'rib chiqil-ganidan keyin, o'quvchilarga boltli yoki shpilkali birikmalar chizmalarini bajarish bo'yicha topshiriq berish mumkin.



116-shakl. Rezbaning chizmada tasvirlanishi: a) sterjenda; b) teshikda




117-shakl. Ko'rinmas rezbaning tasvirlanishi




118-shakl. Chizmada rezbalarning tasvirlanishiga misollar

Ushbu mavzuni o'rganishga umumta'lim maktablarining chizmachilik bo'yicha fan dasturiga asosan vaqt oz ajratilgan. Lekin o'qituvchi yuqorida ko'rib chiqqan qoidalarni o'quvchilarda to'g'ri shakllanishiga erishmasa, o'quvchilar keyinchalik mashinasozlik chizmalarini to'g'ri o'qish va bajarishda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa mashinasozlik chizmachiligi chuqur o'rganiladigan kasb-hunar kollejlari talabalarining rezbalar, ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarning chizmalarini savodli bajarishlariga erishish zarur.

Buning uchun talabalar bajaradigan individual topshiriqlar tarkibiga rezbalarning chizmada tasvirlanishi, rezba kattaliklarini ko'rsatish bilan bog'liq kompleks topshiriqlarni kiritish zarur bo'ladi (120-shakl).



119-shakl. Rezbali birikmalarning tasvirlari



120-shakl. Mustaqil bajarish uchun topshiriq variantiga misol

Boshqa birikmalarni ham iloji boricha maket va plakatlarni namoyish qilib tushuntirish kerak. Maketlarni maktab o'quv ustaxonalarida o'quvchilarning o'zlari ham tayyorlashlari mumkin.

Umumiy ko'rinish chizmalarini o'qish va detal-larga ajratishni o'rgatish. Shulardan keyin o'quvchilarni umumiy ko'rinish chizmalari bilan tanishtirib, ularni o'qish va bajarishga o'rgatishni boshlash mumkin. O'qituvchi dastlab o'quvchi-larga yig'ish chizmalarining amaliy ahamiyati va uning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot berishi kerak. Dastlabki tushuntirishlarni o'quvchilarga tanish va tuzilish sodda bo'lgan eshik tutqichi, ventil yoki gaz krani (uy ro'zg'or texnikasi), tiski, randa kabi mahsulotlar misolida o'tkazishni maslahat beramiz.

Bunda bir vaqtning o'zida umumiy ko'rinish chizmasi va detalning o'zini namoyish qilish kerak. Keyinchalik darslar jarayonida o'quvchilarga tanish, sodda tuzilishli detallarni takomillashtirish yoki konstruksiyasini oxiriga etkazish bilan bog'liq topshiriqlarni birgalikda tahlil qilish mumkin. Bunday topshiriqlar o'zining ijodkorlik ruhi bilan bolalarga qiziqarli bo'lib,

ular bu topshiriqlarning amaliy foydali jihatlarini qadrlaydilar. Hamma topshiriq turlarini individual yoki jamoa shaklda, o`qituvchi rahbarligida bajarish mumkin.

Yig`ish chizmalariga o`rgatishda o`quvchilar oldin mehnat ta`limi darslarida olgan bilimlaridan ham foydalanish kerak (biriktirish turlari, metall detallariga rezba kesish va boshqalar). Bu mavzuga qiziqqan o`quvchilarni texnik yoki badiiy – texnik yo`nalishdagi to`garaklarga jalb qilish kerak.

Yig`ish chizmalarini o`qish. Mexanizmning ishlatilish sohasi va ishlash printsiptini; yig`ish birligiga kiruvchi detallarning nomi, soni va shaklini va shuningdek mexanizmni yig`ish, tayyorlash va nazorat qilish uchun zarur bo`lgan boshqa ma`lumotlarni aniqlash – *yig`ish chizmalarni o`qish* demakdir.

Amalda yig`ish chizmalarini detallarga ajratib chizishdan oldin doimo shu chizmalarni o`qishga to`g`ri keladi. O`quvchilar oddiy yig`ish chizmalari haqidagi boshlang`ich ma`lumotlarni mehnat ta`limi darslarida olgan bo`ladilar. Yigish chizmalarini o`qishga o`rgatishda o`quvchilar oldin egallagan bilimlariga tayangan holda ishni yig`ish chizmasi va uning tarkibiga kiruvchi alohida detal chizmasini solishtirishdan boshlash maqsadga muvofiq.

Solishtirish jarayonida yig`is yotgan yosh avlod idrok qilish, infarmatsiyani qabul qilib uni qayta ishlab, grafikaviy vositalar bilan o`zlash kobilayati ega bo`lishiga katta talablar qo`yilmoqda. Shuning uchun ham o`quvchilardagi asosiy grafik bilimlar va malakalarning shakllanish samaradorligini o`rganish g`oyat muxim masalalardan biridir.

O`quvchilarda grafikaviy bilim, malaka va o`quvlarni tarkib toptirish va maktabda o`quvchilarning grafikaviy tayyorgarlik istiqbollari bilan bog`liq, masalani ilmiy asoslash ob`ektiv haqiqatning muhim xususiyatlarini hisobga olishini talab qiladi.

Odatda har qanday predmet faoliyatining xususiyatiga inson faoliyatining mazmuniga muxim o`zgartirishlar kiritmoqda.

Ishlab chiqarish funksiyalarining ko`pchilik qismining mashinalarga yuklanishi natijasida mehnat jarayonining ijrochilik qismlarini tashkil etuvchi harakatlantiruvchi operatsiyalar birmuncha soddalashib bormoqda. Shu munosabat bilan turli infarmatsiyalarni yfigd qilish ularni fikran o`zlashtirish bilan bog`liq bo`lgan aqliy operatsiyaning salmog`i ortib bormoqda.

Hozirgi zamon ishlab chikarish sharoitida inson mehnatining harakterli xususiyatlaridan biri, uning texnik ob`ektib va texnologik jarayonlarni boshqarishdagi vositachiligi bilan ifodalanmokda. Ishlab chikarishning kator tarmoklarida insonning muloqoti real ob`ektlar bilan bulmay, real utib boradi hotira va jarayonlarning urnini bosuvchi sxemalashtirilgan boshqaruv puldlari bilan olib boriladi.

Inson mashinalar, mexanizmlar va texnologik jarayonlarning modellari bilan ish ko'rganda boshqaruvchi va ko'zatuvchi ob'ektlar haqida ko'proq infarmatsiyalar olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agar jamiyat ishlab chiqarish kurslari rivojlanishining muayyan bosqichlarida insonning grafikaviy savodi ob'ektlarning obrazli grafikaviy modellari bilan ish ko'rish o'quvlari bilan bahlolangan bulsa, hozirgi vaqtga kelib, fazoviy va boshqa masalalarning yechish usulini prinsipial ravishda o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlarning abstrakt simvolik shakldagi modellari bilan ish ko'rish o'quviga ustunlik berilmoqda.

Hozirgi zamon moddiy ishlab chiqarish sharoitida, infarmatsiya vositalarining sastavi va belgili tarkibini sifat jihatdan o'zgartirish ehtiyoji sezilmokda. Bu masalani yechish bilan bog'lik soddalashtirish sistemaning ikki yuli aniqlanmoqda.

Birinchisi - shunday sistema yaratish kerakki, tanlangan belgilari shakli tasvirlanadigan ob'ektning xususiyat va munosabatlarining maksimal ravishda aks etirish kerak. Ammo kupchilik hollarda bunga kiyinchilik bilan erishish mumkin.

Ikkinchisi – yo'l esa boshqaruvchi ob'ektlarning xarflar, raqamlar va boshqa shartli belgilar vositasida ularning real xususiyat va munosabatlarni hech bir eslatmaydigan tarzda tasvirlayotgan g'oya bilan bog'liqdir. Bu tendensiya texnologik hujjatlarni rasmiylash bilan bog'liq bulgan chizmachilik fanida qayta ko'rinmoqda va xalqaro mashtabda sistemali ravishda takomilllashtirilgan. Ko'pchilik kattalashtirish, soddalashtirish va shartli belgilar konstruktorlik hujjatlarda o'z aksini topmoqda, ayrimlar yaqin vaqtlarda joriy qilish rejalashtirilmoqda.

Ayrim ixtisoslashtirilgan sanoat tarmoklarida (elektron radio texnik, asbobsozlik va boshqalar) Tipavoy dettalar, asboblari, o'zenlar va shunga o'xshashlar chizmalarni narmallashtirish soddalashtirish soxasida bir nechta kadamlar ko'yilmoqda.

Texnologik hujjatlar soxasida tipavoy texnologik operatsiyalarning tasvirlarini shartli refleklar bilan almashtirish g'oyalari oldinga surilmokda shunday qilib, tasvirlarda uning xususiyatlari bilan fark kiladigan kup sonli real ob'ektlarning tula aks ettirishga yordam beradigan va ularga universal moxiyat kasb etadigan sxemalashtirish va furmalashtirish tendensiyali kuchaymoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan fan va texnologiyaning jadal o'sishi bilan bog'liq chizmachilik fanining rivojlanishini ob'ektiv tendensiya o'quvchilarni grafikaviy tayyorgarlik jarayonida o'z aksini topmog'i lozim.

Shunday ekan yukorida aytib utilgan ob'ektiv hakikatni kuyidagi xulosalarni chikarish mumkun.

Birinchidan, O'zbekistonda ta'lim rivojlanishni yangi boskichida utmokda. Shu munosabat bilan maktabda grafikaviy tayyorgarlik kuchaytirilgan talabni qo'yish talab etiladi. Bu hozirgi kunimiz uchun eng zarurdir.

Ikkinchidan, kishilarning obrazi tafakkuri va fazoviy tasavvurini rivojlantirishga karatilgan talablar o'zluksiz ravishda usib bormokda.

Umumiy va kasb-hunar ta'limining rivojlantirish orasida o'quv-tarbiya jarayonining sifatini oshirish muommolari muxim bulgan vazifadan biridir.

Bu yo'nalishdagi izlanishlarni zarurligi, birinchidan, hozirgi zamon darsiga, ukutuvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligiga bulgan talabni ortib borayotganidan bo'lsa, ikkinchida, so'ngi yillarda pedagogika fani erishgan yangiliklarni didaktik, nuktai nazardan o'qutuvchilarning baholay olishga bo'lgan talabning ortib borishidir.

Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarida mehnat va politexnika ta'limini to'la-to'kis amalgam oshirishi o'quvchilarni grafik savodxonligini oshirish shuning uchun zarurli, ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida insonning predmat va ob'ektlarning real hususiyatlariga ko'ra abstraksiyalashning xar hil darajadagi grafikadagi modellar bilan ish ko'rish qobiliyatga bulgan talablar kun sayin o'sib bormoqda.

Shuning uchun ham keyingi yillarda "inson va texnika" sistemasida psixologlaring tafakkur jarayoniga pedagog va metodislarning ta'lim jarayonida infarmatsiyaning grafikaviy vositalardan foydalaniishning usul-uslublarini shakllantirish manosiga kizikishi ortmokda.

O'quvchilarning mexnat politexnika tayyorgarligida chizmachilikning ruli shundan iboratki, grafikaviy faoliyat o'zining sinfikaviy hususiyatga ko'ra chizmalarni o'qish va bajarish soxasidagi bilimlar va o'quvlar sistemasi bilan texnikaga taluqli sistemalashgan bilimlarni uyg'unlashtirilishi bilan xarakterlanadi.

Chizmachilik kursidagi o'quv materialining mazmuni o'quvchilarada texnikasini o'zlashtirishga, ishlab chikarishda texnikaviy ob'ektlar ilan mulokotda bulishga karatilgan.

Chizmalar infarmatsiyalarning shunday sifetsifikit vositalardan birikib, ularsiz fanda, ishlab chikarishda va turmushda insonni kamrab olingan mashinalar, asoblar, inshoatlar, kup sonli texnikaviy yp'nalishlarni bilib olish va ulrning to'zilishini modellashtirib bo'lmaydi.

Keyingi yillarda chizmachilik metodikasi takommillashtirib bormoqda. Shunga ura o'qitish jarayonida nazariy asoslangan va ta'limning kup yillik amaliyotida sinalgan metodik yo'l-yo'riqlariga amal qilish lozim.

Bularning eng asosiysi tug'ri burchakli proeksiyalash bilan aksonometrik proeksiyalashning paralel o'rganish, giometrik proeksion va texikaviy chizmachilikning bir butunligini tug'ri anglashdan iborat.

O'qitish jarayonida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish sohasida hozirgi vaqtgacha qilinayotgan ishlarni yanada takomillashtirish lozim. Bu-bolalarni faqat bilimlar sistemasi bilan qurollantiribgina kolmay, balki ularda fikrlash faoliyatining turli grafikaviy masalalarni yechish bilan bog'liq bo'lgan usullarni shakllantirish ham kerak degan so'zdir.

Chizmachilikda va pedagogik psixologiyada o'quv ishlarining eng yaxshi usullarini tanlashga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa ta'lim jarayoniga o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirilyotgan kiritish metodikaning diqqat markazida vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan turib, o'tirib ko'rilsa o'quv adabiyotlari, didaktik materiallar bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida grafikaviy mashklar o'quvchilarni bilish faoliyatining aktivligiga turlicha ta'sir qilishni kursatdi. Hamma o'quv mashqlarini shartli ravishda uchta gruppaga bo'lish mumkin. Ular reproduktiv yoki turli darajadagi aktiv fikrlash faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Birinchi gruppaga chizmani mashtab bo'yicha o'zgartirib yoki o'zgartirmay tasvirlash mashqlarini kiritish mumkin. Bu mashklar tafakkurni rivojlantirishga ham foyda keltiradi.

Ikkinchi gruppaga o'quvchilarning tafakkuri rivojlantirishga yordam beradigan chizmalari o'qish tavsif bo'yicha tasvirlash yasash, chizmalarni solishtirish kabi yachimi grafikaviy va amaliy faoliyat talab kiladigan mashqlarni kiritish mumkin.

Uchunchi gruppaga fazoviy tasavvurning dinamik ravishda rivojlantirishga yordam beradigan yechimi ikki va undan ortiq almashtirishlar bilan bog'liq mashqlarni kiritishi mumkin.

Tadqiqotlar grafikaviy va amaliy ishlar fikrlash aktivligiga turlicha ta'sir qilishini isbotladi va ko'p planli grafikaviy masalalarni bajarish jarayonida o'quvchilarning potensial qobiliyatlari aniqlanadi. Shunga ko'ra ta'lim jarayoniga kiritiladigan grafikaviy va amaliy mashklashning mazmunini takkoslash unumli bilan chizmalarni o'qish, tasvir bo'yicha tasvir chizish, chizmani yetishmovchi chiziq yoki ko'rinishlarni to'ldirish kabi mashqlar bilan boyitish kerak.

Tarbiyaviy bu mashklar o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantiradi va ular chizmachilik kursining dastur materiallarini o'zlashtirish mustahkamlashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Ammo keyingi vaqtlardagi muhim yo'nalishlar o'quvchilarning dinamikaviy fazoviy tasavvurini rivojlantirishga karatilmokda. Shunga kura o'quvchilarning grafik faoliyati o'quvchilar fazoviy tasavvurini ko'zg'uluvchanligi, mantiqiy va ubrazli tafakkurini rivojlantirish kabi hozirgi zamon ishlab chikarish uchun zarur bolgan yaratuvchanlik faoliyatini tarkib toptirishga xos bulgan vazifalarga tayangan bulishi kerak.

O'quvchilarning grafik tayyorgarlik jarayoniga almashtirishlarning turli xillarini, jumladan, predmetlarning shakli, fazoviy xolati, ularning proeksiyalash metodlari o'zgartirish va tasvirlash usullarini keng ko'lamda joriy qilish o'zining

faoliyat harakteri bo'yicha o'quvchilardan aktiv fikrlash talab qiladigan vaziyatlarni yechish bilan bog'lik o'quv faoliyati o'xshashdir.

Muntazam olti yokli prizma proektsiyalarni yasash, uning bir garizontal proektsiyasi bo'lgan muntazam olti burchakli yasashdan boshlanadi. Shu olti burchak yoklardan vertical bog'lash chiziqlar utkaziladiva prizma pastki asosining frontal proektsiyasi yasaladi bu proektsiya gorizantal tog'ri chiziq kesmani ko'rinishda tasvirlanadi bu to'g'ri chiziqda yuqoriga prizmaning balandligi o'lchab ko'yiladi va ostki asosining frontal proektsiyasi chiziladi. Sungra kirralarining frontal proektsiyalari yani proektsiya balandligiga teng tug'ri chiziq kesmalari chiziladi. Pirizma oldidagi va orqasidagi qirralarining frontal proektsiyalari ustma-ust tushib qoladi.

Yonyoklarning gorizantal tug'ri chiziq kesmalari kurinishda tasvirlandi. Urtadagi yon yog'i v tegishlilik haqiqiy kattalikdagi W tegishlilikka esa tug'ri chiziq ko'rinishda proektsiyalanadi.

Qolgan yoqlarni frontal va fprofil proektsiyalari o'zgarib proektsiyalanadi. Proektsiyalar tekisliklariga og'ma joylashgan prizmaning ikki proektsiyasini yasash bir muncha murakkabdir. Olti yoqli og'ma pirizmaning H tekislikka nisbatan ikkita hilma-hil vaziyatdagi to'g'ri burchaklik proektsiyalarni yasash tarkibini ko'rib chiqamiz.

1. Asosan H tekislikda yotgan prizma shu tekislikka 2 burchak ostiga og'ma joylashgan.
2. Muntazaam olti yokli pirizma H tekislikdan L burchak ostida joylashgan.
3. Pirizma asosan H tekislikda I burchak ostida og'madir.
 - a. CHizmalarning axamiyati tarixi, ishlab chiqarishdagi va ularning vazifalari;
 - b. CHizmalarni taxt qilish qoidalari, chizma qog'ozlar, o'lcham va farmatlar, asosiy yozuv va xoshiyalar;
 - c. Kichaytirish va kattalashtirish masshtablari;
 - d. CHizma bajarishda asosiy yug'on tutash chizik, ingichka tutash chiziq, to'lqinsimon tutash chiziq, shitrix chiziq xamda ingichka shitrix – punktir chiziqlarning ko'llanilishi va ularning vazifalari;
 - e. Markaziy va parallel proektsiyalash;
 - f. Oktant va epiror xaqidagi umumiy tushunchalar;
 - g. Asosiy ko'rinishlar va ularni joylashtirish tartibi;
 - h. Bosh va zaruriy ko'rinishlar sonini aniqlash;

- i.** Aksonometrik proeksiyalarni xosil qilish va ularning turlari;
- j.** CHizmalarni qirqish tarib koidalari ;
- k.** CHizma asboblardan unumli foydalanish;
- l.** Standart chizma shriftlarini yoza olish;
- m.** Tutashmalarni bajara olish;
- n.** Sirkul va lekalu yordamida egri chiziqlarni bajara olish;
- o.** CHizmalarni o'qiy olish;
- p.** Murakkab bo'lmagan modelning ikki ko'rinishiga asosan uning fozoviy shaklini tasavvur qila olish va uchinchi ko'rinishni yasay olish;
- q.** Standart tug'ri burchakli izometrik va qiyshik burchakli dimetrik proeksiyalarni bajara olish;
- r.** Maълumotnoma adabiyotlardan foydalana bilish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin xar bir soxada biz yoshlarga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Boshqa soxalar kabi tasviriy san'at va *chizmachilik fani xam inson xayotida juda muxim o'rin tutadi. Kundalik* xayotimizda eng zarur buyumlar: choynak, piyola, tarelkalarning chiroyli bezaklari san'atkor rassomning qo'li bilan yaratiladi. Mamalakatimizdagi atoqli kishilarning, sanoat va qishloq xo'jaligi ilg'orlarining portryetlari, ko'chalar, maydonlar qlublar kinoteart binolari xam rassomlar qo'li bilan bezatiladi. Xar bir kishi yozish, o'qish va sanashni o'rganganidek, rasm chizishni xam o'rganib olishi mumkin.

Rasm chizish tasavvurni tarkib toptiradi, xotirani va kuzatuvchanlikni oshiradi.

Xar qanday o'quv jarayoni singari tasviriy san'at darslarining asosida xam o'quvchilarni yuqori g'oyaviy ruxda tarbiyalash, ularga san'atdagi xalkchilikning ro'lini tushuntirish yotadi.

CHizish jarayonida diqqatni bir yerga to'plab ishlashga xarakat qilmoq darkor, chunki busiz yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi.

Rasm chizish nazariyasi va texnikasini o'zlashtirib olishning asosiy shartlaridan biri rasm chizish bilan muntazam ravishda shug'ullanishdir.

Rasm chizish texnikasi va nazariyasi uzlashtirib olishda darsdan tashqari vaqtlarda xomaki ishlar qilish, kompozitsiyalar, oplikatsiyalar tuzish, tabiiy matyeriallar bilan ishlash, kishini urab olgan borliqni va xodisalarga sinchkovlik bilan munosabatda bo'lish, ularni o'rganish, amaliy va tasviriy san'at asarlaridan ryeproduktsiya va otkritkalarni to'plash tasviriy san'at muzyeyi va ko'rgazmalarga tez-tez borib tuzish, rasm chizish myetodikasi, tasviriy san'atga va san'atshunoslikka oid adabiyotlarni muntazam o'qib turishning roli benixoya katta.

Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruxiy dunyosini boyitadi. Tomoshabinlarga zavq ulashadi.

San'at xalkning estyetik extiyojlarini kondirishga, ommaning estyetik jixatdan usishiga xizmat kilishi lozimligini xamma xam juda yaxshi biladi: Estetik jixatdan usish fakat san'atni idrok etish uchungina lozim bulmay, balki umumiy madaniyatning-myexnat madaniyati, turmush madaniyati xichtuyg'ular-madaniyatining ravnaki uchun juda zarurdir.

Kasb xunar kollejlarida tasviriy san'at darslarini o'kitish o'qituvchida katta maxorat talab etadi.

Talabalar tasviriy san'at darslari orqali borlikni idrok etishga o'rgatish ularda mexr-shaqkat, odamlarga nisbatan oqibatli bo'lishga o'rgatish o'qituvchining vazifasidir.

O'quvchilar juda chiziquvchan, talabchan bo'ladi. Dars davomida talabalarga bilim berish o'qituvchidan juda katta pedagogik maxorat talab qiladi. O'qituvchi xar bir o'quvchini xulkatvorini psixologiyasini yaxshi bilishi lozim.

Dars davomida o'quvchilar bilimini tekshirish va baxolash ta'limiy axamiyatga ega. O'quvchilar bilimini xisobga olish natijasida ularning bilimni uzlashtirishdagi kamchiliklari o'z vaqtida aniqlanadi va kamchiliklarni bartaraf kilish uchun tegishli choralar ko'riladi. Talabalar bilimini xisobga olish jarayonida ularning aqliy qobiliyatlarini fikr yuritish, esda saqlab qolish, kuzatuvchanlik barkaror diqqatini o'stirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, u talabalarda javobgarlik o'ziga nisbatan talabchanlik, qiyinchiliklarni yengish, maqsadga erishish, vijdonan ishlash kabi xususiyatlarni tarbiyalaydi.

Kasb-hunar kollejlarida chizmachilik kursining mazmuni didaktika prinsipidan kelib chiqib, chizmalarni kismlarini o'qish va bajarish bo'yicha standartlashtirilgan.

Chizmachilik talimi mazmunini tuzishda politexnik talimi vazifalari, turdosh predmetlar va mexnat tayyorgarligi talablarni xisobga olish, politexnik talim tushunchalarini quyidagicha izoxlash mumkin. O'quvchilarga faqat politexnik bilim va malakalar beradigan aloxida o'quv predmeti yoki O'quvchi kollejda barcha talim tarbiya vositalari, ayniqsa grafik talim orqali politexnik malumotga ega boladi.

Talimdagi politexnik prizma o'quvchilarini o'quv mexnat faoliyati obektlarini politexnik mazmuni xamda uning o'qituvchi tomonidan ochib berishi va o'quvchilarni qabul qilish tizimini ifodalaydi. Grifik va amaliy mazmuni ishlar chizmalarni o'qishga xamda talim jarayonida loyixalash masalalardan foydalangan xolda xalqaro qabul qilingan shartlilik va ximoyalash belgilar bilan muvofiqlashtirishga yonaltirish yuzasidan.

Kasb-hunar kollejlarda chizmachilik talimi mazmuniga ajratilgin tasvirlash metodiga tegishli chizmalarni tanlashda materialni texnik va amaliy mohiyati xayotda qollanish xollarini kenglini xal qiluvchi rol o'ynashini etiborga olish. Grafik talim xajminining majburiy kasb-hunar kollejlarda talabalarga berilshi zarur bo'lgan ta'lim mazmuni umumiyligini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonunni Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent shark 1997 yil.
2. Aziz Xujaev.N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyasi" Toshkent 2002 yil.
3. YOdgorov Y.YO.Kobuljonov.K.M. va boshqalar. CHizmachilik Toshkent "O'qituvchi" 1992 yil.
4. Murodov.SH.K. va boshqalar chizma geometriya kursi. Toshkent "O'qituvchi".
5. Xorunov. R.X. Akbarov.A. chizma geometriyadan masalalar va ularni yechish usullari. 2-nashri "O'qituvchi" 1995 yil.
6. Sobitov. E. CHizma geometriya qisqa kursi. Toshkent "O'qituvchi" 1991 yil.
7. Umumiy o'rta ta'limi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. 1999 yil. 4- maxsus soni.
8. Texnikaviy chizmachilik kursi S.K. Bogomullaev. A.V. Vaimov. "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent 1976 yil.
9. I.A. Karimov.YUksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent ma'naviyat 2008 yil.
10. Karimov. biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar to'plami 1999 yil.
11. I.A.Karimov. "Vatan sajdagox kabi mukaddasdir"
12. CHizmachilik A.D. Batbinnikov. U.N.Vinogradov. I.S. Vishnekoliskiy Toshkent "O'qituvchi" 1990 yil.

13. U.Abdullaev. CHizma geometriya va chizmachilik asarlari “O’zbekiston” nashriyoti 1999 yil.
14. I.Raxmonov. CHizmalarni chizish.